

UDK:635.1 /.9.

DORIVOR STEVIYA (STEVIA) O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹

Yulbasov Avazbek Muhtarovich²

Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li³

Gulomov Shoxujahon Dilmurod o'g'li⁴

muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com¹

avazbekakayulbarsov@gmail.com²

nazirjonovi@mail.ru³

gulomovsh@gmail.com⁴

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada dorivor ahamiyatga ega bo'lgan Stevia o'simligining agrotexnikasi, ekish sharoitlari hamda farmakologik xususiyatlari yoritilgan. Steviya barglarida uchraydigan steviyozid va rebaudiozid moddalari tibbiyotda va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Tadqiqotlar asosida steviya antioksidant, antibakterial, anti-diabetik va antiobezogen xususiyatlarga ega ekani isbotlangan.

Annotation: This article highlights the cultivation techniques, growing conditions, and pharmacological properties of the medicinally valuable plant *Stevia rebaudiana*. The leaves of stevia contain bioactive compounds such as stevioside and rebaudioside, which are widely used in medicine and the food industry as natural sweeteners. Research has demonstrated that stevia possesses antioxidant, antibacterial, anti-diabetic, and anti-obesogenic properties.

Kalit so'zlar: Stevia, dorivor o'simlik, steviol glikozidlari, steviyozid, rebaudiozid, yetishtirish texnologiyasi, agrotexnik tadbirlar, antioksidant, anti-diabetik, semizlikka qarshi, farmakologik xususiyatlar, tabiiy shirinlik

Keywords: Stevia rebaudiana, medicinal plant, steviol glycosides, stevioside, rebaudioside, cultivation technology, agro-techniques, antioxidant, anti-diabetic, anti-obesity, pharmacological properties, natural sweetener

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son “Dorivor o‘simliklarni etishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida dorivor o‘simliklarni etishtirish va ulardan dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilmoqda. Dorivor o‘simliklarni ko‘paytirish va uning xom-ashyosini tayyorlash sohasini rivojlantirish bo‘yicha alohida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida o‘rmon ekinlar strukturasi yangicha tizimi joriy qilinmoqda. Hozirgi kunda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojning ortishi fonida tabiiy shirinliklar, xususan, steviya kabi dorivor o‘simliklarga talab oshib bormoqda. Stevia Janubiy Amerika kelib chiqishli, Asteraceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, barglarida yuqori miqdorda shirin modda - steviyozid mavjud. Ushbu modda kaloriyasiz bo‘lib, qandli diabet, semizlik, yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasida muhim rol o‘ynaydi. Botanik tavsifi Stevia– 60–100 sm gacha o‘sadigan, yupqa poyali, ingichka bargli, ko‘p yillik o‘simlik. Barglarida 8–12% gacha shirinlik birikmalari mavjud.

1-jadval

Steviya yetishtirish bo‘yicha agrotexnik talablar

№	Bosqich	Agrotexnik tadbir	Talablar
1	Tuproq tayyorlash	Haydash, tekislash, organik o‘g‘it solish	Yengil, unumdor, yaxshi drenajlangan tuproq; pH 6.0–7.5

2	Ekish vaqti	Ko'chat usulida ekish	Tuproq harorati $\geq 10-12^{\circ}\text{C}$ bo'lganda (asosan aprel oxiri – may)
3	Sug'orish	Tomchilatib sug'orish afzal	Haftasiga 1–2 marta, ayniqsa vegetatsiya davrida
4	O'g'itlash	Azot, fosfor, kaliyli o'g'itlar	Vegetatsiya davrida 2–3 marta beriladi
5	Begona o'tga qarshi kurash	Qo'lda yanchish yoki agrotexnik usullar	Har 2–3 haftada bir tozalash kerak
6	Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash	Profilaktik purkashlar, bioinsektitsidlar	Zaruratga qarab kimyoviy usullar
7	Hosil yig'ish	Gullashdan oldingi bosqichda	Odatda avgust–sentyabr oylarida, barglar shirinlikka to'la bo'ladi

Dorivor steviyani yetishga qo'yilgan Agrotexnik talablari quydagi 1-jadval orqali ifodalangan. U o'simlik Tropik va subtropik iqlimga mos, sovuqqa chidamsiz xisoblanadi. Qumloq, qumoq, unumdor va yaxshi drenajlangan tuproqlarda pH 5.5–7.5 oralig'ida yetishtirilsa maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.



1 rasm Dorivor steviya o'simligini

Dorivor steviya o'simligini ko'paytirish va ekish ishlarini asosan yashil qalamchalardan vegetativ usulda ko'paytiriladi. O'simlikni oxirgi vaqtlarda 60×30 sm, qilib ekish tavsiya etiladi bunda: gektariga 60–80 ming tup ko'chat ekilishini ko'rishimiz mumkin.

Dorivor steviya o'simligining farmakologik xususiyatlari Steviya biologik faol moddalarga boy bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega. Uning farmakologik xususiyatlari va ta'siri xaqida 2- jadvalda ko'ishimiz mumkun.

2-jadval

Xususiyati	Ta'siri
Anti-diabetik	Glyukoza darajasini me'yorlashtiradi
Antiobezogen	Ishtahani pasaytiradi, kaloriya bermaydi
Antioksidant	Erkin radikallarni neytrallaydi
Antibakterial	Og'iz gigiyenasida, tish pastalarida ishlatiladi
Qon bosimini pasaytiruvchi	Gipertoniya bilan og'riqlarda foydali

Xulosa: *Stevia* — nafaqat iqtisodiy, balki tibbiy jihatdan ham foydali dorivor o'simlikdir. Uni O'zbekiston sharoitida yetishtirish imkoniyati mavjud bo'lib, salomatlikni qo'llab-quvvatlovchi, ekologik toza, eksportbop mahsulotdir. Uning yetishtirish texnologiyasini mukammal o'zlashtirish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali yangi daromad manbalarini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Geuns, J.M.C. (2003). Stevioside. *Phytochemistry*, 64(5), 913–921.

2. Lemus-Mondaca, R. et al. (2012). Stevia rebaudiana Bertoni: Source of a high-potency natural sweetener. Comprehensive Reviews in Food Science and Food Safety.
3. Misra, H. et al. (2011). Stevia rebaudiana: A natural sweetener. International Journal of Food Sciences and Nutrition.
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O'simlikshunoslik Instituti ma'lumotlari.
5. Shodiyev D.A, NAjmiddinova G.K. Пищевые добавки и их значение //Universum:технические наукию-2021.С.30-32
6. ShodiyevD.,Hojiali Q.Medicinal properties of amaranth oil in the food industry//Interdisciplinary Conference of young Scholars in social Sciences.2021/ С.205- 208
7. Sulaymonov I.J,Ergashov D.T.Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar.Namangan-2020 yil.71 -72-bet